

O`RTA OSIYONING ARABLAR TOMONIDAN FATH ETILISHI.

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arablar tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi ikkinchi bosqichi, Qutayba ibn Muslimning yurtimiz shaharlarida olib borgan kurashlari, mahalliy hukmdorlarning arablarga qarshiliklari, aholini islom diniga o'tkazish va bu boradagi tadbirlar, shuningdek, arablar g'alabalarining asosiy omillari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Balx, Qutaiba ibn Muslim, Poykand, Xorazm, Buxoro, Marv, Islom dini, islolashtirish,*

Arablar tomonidan yurtimizning fath etilishi ikki bosqichga bo'linadi. 651–705-yillargacha bo'lgan birinchi bosqichda arablar qo'shini asosan hukmdorlarning kuch-qudratini bilish, o'ljalar olish hamda hududiy masalalarni o'rganish uchun yurishlar uyushtirgan. Ubaydulloh ibn Ziyod, Said ibn Usmon kabi sarkardalar bir qancha g'alabalarga erishgan bo'lsalar-da, muqim o'rnasha olmaganlar. Mahalliy aholi qarshiligi davom etib turgan. 705-yilga kelganda esa endi rosmiyan egallash, aholini islom diniga da'vat qilish boshlangan.

705 yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlangach, Movarounnahrni butunlay bosib olish harakati boshlanadi. O'rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlarning bir-birlari bilan tez-tez nizolarga borib turishi Qutaybaga nihoyatda qo'l kelgan edi.[8, b. 198].

Qutaybaning maqsadi — turklarning o'lkasini talon-taroj qilish, chekinish haqida o'ylamasdan mamlakatni tamoman bo'ysundirish va musulmon etish edi.

Qutayiba bu yo'lda avvalo janubdagi eng birinchi qal'a — Balxni fath etishga qaror qildi. O'zining Marvda yig'ilgan askarlarini Qutayba va'z va nasihat hamda Qur'on tilovati bilan tegishlicha tayyorlagandan so'ng, minbardan to'g'ri o'zining safar otiga mindi. Shundan jangga ketdi. U qadimgi Baqtriyaga borib etar-etmas, Balx aholisi uning istiqboliga chiqdilar, uni hurmat va ta'zim ila o'zlarining shaharlariga olib kirdilar. U shaharda xalifalik hokimiyatini qarorlashtirdi. Keyin Amudaryo orqali aylanib, hozirgi Chorjo'ydan o'tib Marvga qaytdi. Shu yerdan 87 (705) yilda Movarounnahrni istilo qila boshladi. Sahroda bir manzilga etgach, turk askarlari bilan tasodifan to'qnashdi. Turklar lashkari son jihatdan Qutayba askaridan ko'p edi, shuning uchun ular tomonidan qattiq muhosara qilindi.

Qutayiba turklar bilan jangga kirishib, bir kunlik urushdan so'ng ularni yengdi. Bularning bir qismi qochdilar, bir qismi esa metindek qattiq bo'lgan Baykandda yashirindilar. Bu vaqtda qal'a qamal qilindi. Bu qamal davrida arablar talofot ko'rdilar. Ularning o'n besh kunlik jangchilari bekor ketdi. Shundan keyin qal'aning devori teshildi. Qutayba qal'aga birinchilar safida borgan va shahid bo'lgan kishilarning bolalariga katta mukofot va'da qildi. Bu va'da ta'sir etib, arablar qal'ani ishg'ol etdilar. [1, b. 59-60].

Qutayba sulh tuzib, mol oldi va Varqo ibn Nasr Bohiliyni ularga amir qilib qoldirdi-da, o'zi Buxoroga qarab yo'l oldi... Qutayba Xunbun (qishlog'i)ga kelganida unga: "Hisor aholisi qo'zg'olon qilib, amirni o'ldirdi", — degan xabarni yetkazdilar. Qutayba lashkariga: "Boringlar, Paykandni talon-toroj qilinglar. Ularning qonlarini to'kishni va mollarini olishni halol qildim", — deb buyruq berdi... U qaytib Paykandga keldi va u yerda kimki urushga yaroqli bo'lsa, hammasini o'ldirdi, qolganlarini asir qildi. Shunday qilib, Paykandda hech kim qolmadi va Paykand xarob bo'ldi".

Paykand shahri aholisining katta qismi savdogarchilik bilan shug'ullanib, Xitoy, Kaspiy dengizi va boshqa joylarga qatnab turganlar. Shu bois shahar o'zining beqiyos katta boyligi bilan arablarni juda hayratga solgan. Oltin va boshqa qimmatbaho o'ljalarning hisobini qilish ancha qiyinchilik tug'dirgan. Boshqacharoq aytganda, arablar Paykandni egallab, "jiqqa moy"ga botganlar. Zero, "Qutayba

Paykandni fath qilganida bir butxonada og'irligi to'rt yuz dirham keladigan bitta kumush but topgan. U yana bir necha kumush jomlar topib olgan va ularning hammasini jamlab, tarozida tortganida bir yuz ellik ming misqol chiqqan. U har biri kabutar tuxumidek keladigan ikkita marvarid ham topib olgan".[3, b. 28].

Qutayiba Poykanddan so'ng Buxoroning Kumushkent va Romitan hududlariga hijriy 88 (milodiy 706/707) yilidagi yurishida qattiq qarshilikka duch kelgan Qutayba ikki yil o'tib yana Buxoroga yurishini davom ettiradi. Ashinaliylar yetakchisi Qapag'an unga qarshi shahzoda Kulteginni bosh maslahatchisi Bilga To'nyuquq hamrohligida 200 ming qo'shin bilan (aslida, 40 ming bo'lgan) Sug'dga yuboradi. Ular Tarxun qo'shini bilan birlashadi. Bu birlashgan kuchlar 709-yil kuzida Qutaybani Tarob, Xunbun va Romitan qishloqlari oralig'ida qurshovga oladi. Og'ir vaziyatda qolgan Qutayba o'z qo'shinini «turklarni daf etishga» da'vat qilib, har bir dushman boshiga 100 dirhamdan mukofot va'da beradi. Bundan tashqari, u hiyla yo'lini tutgan ma'lum. Chunonchi, o'z vakili Hayyoni Nabatiyni Tarxun huzuriga yuborib, unda sharqiy turklarga nisbatan shubha uyg'otishga erishadi. Dushman aldoviga uchgan Tarxun jang maydonini tashlab ketadi. Kuchlar nisbati arablar tomoniga og'adi. Kulteginning yarador bo'lishi birlashgan qo'shinlar ruhiga salbiy ta'sir qiladi. Ittifoqchilar yana bir imkoniyatni boy beradilar. Qutayiba 709 - yil Buxoroni qo'lga kiritdi.[2, b. 122 -123].

709-yil Qutayba Zarafshon vodiysining quyi qismidagi eng kuchli Varadanza (Shofirkon) hukmdori Varadhanhudot ustiga yurish qiladi. Varadanza va Buxoro ustidan g'alaba qozondi. 710-yiligi harbiy yurishlarda Qutayba Kesh (Shahrisabz) va Nasaf (Qarshi) shaharlarini bosib oladi. 711-yili Xorazmda boshlangan ichki g'alayonlardan foydalanib, Xorazm hukmdorini yordam so'rashi bahonasi bilan yurish qiladi va u yerda arab hukmronligini o'rnatadi.

712 yilda Qutayba Samarqandga hujum qiladi. Bu paytda Samarqand hukmdori G'urak edi. G'urak arab qo'shinlariga qarshi jang qiladi, ammo kuchlar teng bo'lmaganligi sababli yengiladi. Qutayba bilan G'urak (709–738) o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan, u arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirham hisobiga boj to'lash, 30 ming baquvvat yigitlarni qul o'rnida berishi ko'zda

tutilgan edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi — Afrosiyob kelgindi arab aholisi uchun turar joy sifatida beriladi. Uning tub aholisi esa o'z joyidan mahrum etiladi.[6, b. 86].

713–715-yillarda u Toshkent, Xo'qand, Turkiston (Sharqiy Turkiston) yerlarini, ya'ni Qashg'argacha bo'lgan hududlarni egallaydi. Ana shu tariqa Qutayba ibn Muslim O'rta Osiyo yerlarini zabt etib, Xitoy hududigacha cho'zilgan o'lkada yashayotgan xalqlarni islom diniga kiritadi. Farg'ona orqali Qutayba Marvga yo'l oladi. Marvda xalifa Valid vafot etgan bo'lib, xalifalik taxtiga uning raqibi Sulaymon ibn Abdumalik o'tirgan edi. Qutayba undan xavotirlanar va Sulaymonga ishonmas edi. Shu sababdan u Sulaymonga qarshi ochiq isyon ko'taradi. Ammo isyonchi sifatida o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi.[5, b. 137].

O'lka aholisini islomlashtirish jarayoni juda murakkab kechgan. Arab ma'murlari bu sohada ko'plab xalqlarda zo'ravonlik va kuch ishlatish yo'li bilan mahalliy xalq vakillarini islomni qabul qilishga undaganlar. Bunga rozi bo'lmaganlar esa shafqatsiz jazolangan. Ko'p joylarda mahalliy kishilar noilojlikdan, qiyinchilik ostida islomni majburan qabul etgan bo'lsalar-da, arablar ko'zdan nari ketishi bilan ular yana bu dindan qaytib, o'zlarining eski diniy an'ana va marosimlariga amal qila berganlar. Hatto arablar ishonchini qozonib, islom dinini tantanavor qabul qilgan Buxorxudot Tog'shoda ham islom dinini yuzaki qabul qilgan bo'lib, aslida zardushtiylik aqidalariga amal qilgan. U vafot etganda ham ajdodlari diniy marosimlariga ko'ra dafn etilgan. Bundan ko'rinadiki, islom dini va uning ruknlarining mahalliy aholi orasida yoyilishi nihoyatda qiyin va murakkab kechgan. Bu jarayonda behisob qurbonlar berilgan. Arablarning o'zlarini xo'jalar, sahobalar, sayyidlar, oq suyaklar deb atab, mahalliy xalqqa nisbatan mensimaslik, kalondimog'lik bilan qarashlari ham mahalliy aholi orasida ularga nisbatan nafrat tuyg'usini kuchaytirgan. Shundan so'ng arablar o'z yurtlaridan ko'plab qabila va urug'larni O'rta Osiyoga ko'chirib kelib, eng yaxshi joylarga joylashtirganlar, mahalliy oilalarni esa o'z yer-mulkidan mahrum etganlar. Bu esa ularga qarshi ommaviy noroziliklarning kuchayib borishiga sabab bo'lgan. Masalan, dastlabki paytlardayoq Quraysh qabilasining 5 mingdan ziyod aholisi

Samarqandga joylashtirilgan. Buxoro, Marv, Poykand va boshqa shaharlarda ham masjid va madrasalar qurish bahonasi bilan yerli aholi siqib chiqarilgan, ularning yerlariga arab qabilalari olib kelinib joylashtirilgan. Buning asosiy sababi shunda ediki, bosqinchilar bu begona hududda kuchli ijtimoiy tayanch nuqtasini yaratish yo'li bilan o'z hukmronligini mustahkamlashga uringanlar.[7, b. 100].

Aholi o'z diniga e'tiqod qilishi aniq bo'lgach, ko'chirib kelingan arablar mahalliy aholining uylarining yarmiga joylashtirildi. Endi ular aholiga diniy bilim berar edilar. O'zlarining diniga e'tiqod qilganini ko'rsalar, arab ma'murlariga yetkazishardi. Masjidlar qurilib, aholini namozga kelganlari uchun tangalar berildi, rag'batlantirildi. Bu choralar oxir-oqibat aholining islom dinini to'liq qabul qilishi va uni rivojlantirishiga sabab bo'ldi. Keyingi asrlarda bu xalq ko'plab islom dini bilimdonlarini ham yetishtirib berdi.

Arab qo'shinining jangovar tartibi besh qismdan: avangard, markaz, o'ng va chap qanotlar hamda arergarddan iborat bo'lgan. Ikkala qanotni suvoriy bo'linmalar to'sib turgan. Arab qo'shinida suvoriylar, odatda, tuyalarda yoki otlarda harakatlangan va soni bo'yicha piyodalardan bir necha marotaba kam bo'lgan. Yuqori harakatchanlik arab qo'shinlarining o'ziga xos belgisi bo'lgan. Bu sifatni hisobga olib, qo'mondonlik to'satdan zarba berish tamoyilini keng qo'llagan. Arablarning front bo'ylab va chuqurlikda tarqoq holda joylashtirilgan jangovar tartiblari yuqori taktik manevrchilikni va jangni ichkaridan rivojlantirishni ta'minlagan. Urushlarda arablar pistirmalarni, bosqinlarni keng qo'llaganlar va to'satdan hujumlarni, ko'p hollarda uyquning eng mustahkam davri bo'lgan tongda amalga oshirganlar. Arablarning jangovar taktikasi quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan: markaz ikki qanot bilan harakatni boshlagan, ba'zan zaxira qoldirilgan; aylanib o'tish va pistirmalar qo'llanilgan. Ko'pgina hollarda jang alohida tartibsiz ommaviy to'qnashuvlar ko'rinishida bo'lib, unda alohida jangchi mahorati va jasorati hal etuvchi rolni bajargan.

Arablar zabt etilgan mamlakatlardan olib kelingan jangovar texnikadan foydalanishga katta e'tibor berganlar. Arab qo'shinlari katapultalar, ballistalar va taranlarga ega bo'lganlar. Arablar vizantiyaliklar tomonidan ixtiro qilingan va

“Yunon olovi” nomi bilan mashhur yondiruvchi vositalarni qo‘llaganlar. Yonib turgan neft bilan to‘ldirilgan xumchalarni dushmanga uloqtirishda keng foydalanilgan.[4, b. 146-147].

Arablar bosqinining ikkinchi davri (705-yildan keyingi bosqich) O‘rta Osiyoda siyosiy istilo bilan birga diniy jarayonni ham kuchaytirgan davr bo‘ldi. Bu davrda Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi yurishlar natijasida hududlar xalifalik tarkibiga kiritilib, aholini islomga o‘tkazish siyosati faol olib borildi. Islomlashtirish jarayoni bir xil va oson kechmadi. Aholining bir qismi majburan yoki bosim ostida yangi dinni qabul qilgan bo‘lsa-da, ko‘plab hududlarda eski diniy e‘tiqodlar uzoq vaqt saqlanib qoldi. Arab ma’muriyati soliqlar, harbiy bosim va ijtimoiy imtiyozlar orqali islomni yoyishga harakat qildi. Shunga qaramay, mahalliy aholi orasida qarshilik va noroziliklar ham kuzatildi. Xulosa qilib aytganda, arablar bosqinining ikkinchi davri O‘rta Osiyoda islom dinining kirib kelishi va yoyilishida muhim bosqich bo‘lgan bo‘lsa-da, bu jarayon murakkab, ziddiyatli va uzoq davom etgan tarixiy jarayon sifatida kechgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Арминий В. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Info Capital Books, 2024. – 464 б.
2. Asqarov A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. – Т.: Ma’naviyat, 2023. – 456 b.
3. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Т.: Шарқ, 2001. – 486 б.
4. Самаров Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). – Т.: Маънавият, 2023. – 458 б.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – Т.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.
6. Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. – Т., 2005. – 411 b.
7. Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н. Ўзбекистон тарихи. 1-қисм. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 280 б.
8. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Т., 2014. – 489 б